

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bakalavriat
ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari.....	5
1.2.3.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4.	Kvalifikatsiya	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i	11

1. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka tadabirining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) iqtisodiyot sohasidagi yo'nalish bo'lib, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati sub'yektlarining raqamli iqtisodiyot jarayonlaridagi faoliyatlarini ta'minlash, raqamli iqtisodiyotni joriy etish, rivojlantirish va istiqbolini belgilashni ta'minlash, turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq va sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'yektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining raqamli iqtisodiyot va moliya jarayonlarini raqamlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlar bila ishlash, ishlab chiqarish, iqtisodiy va analitik - tahliliy xizmatlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlarini o'z ichiga oladi, shuningdek, tarmoqlar va sohalar bo'yicha raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini qo'llash orqali ular faoliyatini rivojlantirish, biznes-jarayonlarini raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etish, axborot xavfsizligi muammolarini aniqlash masalalari bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- raqamli iqtisodiyotni ta'minlash va rivojlantirishdagi hodisa va harakatlar;
- raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoq va sohalarining axborot almashuvini ta'minlash bo'yicha faoliyatlar;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jarayonlari, assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, xolding, tijorat banklari, ishlab chiqarish birlashmalarining raqamli iqtisodiyotdagi o'zaro munosabatlari;
- turli mulk shaklidagi korxonalar iqtisodiy faoliyatini raqamlashtirish va ularni boshqarish;
- elektron tijorat sohasidagi korxona/tashkilotlarni yaratish va rivojlantirish usullari hamda vositalari;
- biznesni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayonlari;
- raqamli texnologiyalar sohasida innovatsion jarayonlar;
- maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi axborot jarayonlari;
- ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlar faoliyatini raqamli iqtisodiyotga o'tkazish jarayonlari hisoblanadi.

1.2.3. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *iqtisodiy hisob-kitob;*
- *tahliliy, ilmiy tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarini bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalar bo'yicha tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini raqamlashtirish ishlarini rejalashtirish va bajarish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning xafsizligini ta'minlash bo'limlarini tashkil etish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish,
- raqamli iqtisodiyot bo'yicha loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- "Katta hajmdagi ma'lumotlar"ni qayta ishlashning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va raqamlashtirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning xavfsizligini ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarda tashkiliy-boshqaruv qarorlarini asoslash;
- raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan muammolar bilan bog'liq masalalarni hal qilish, raqamli iqtisodiyotga o'tish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- bulutli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar, buyumlar Interneti, sun'iy intellekt, virtual voqe'lik va blokcheyn texnologiyalaridan foydalana olish;
- xarajatlarni boshqarishni raqamlashtirish;
- amaliyotda raqamli iqtisodiyotning xalqaro va kasbiy standartlarini qo'llash;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Iqtisodiy hisob-kitob:

- raqamli iqtisodiyotni belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitobi uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash;
- harakatdagi me'yoriy-huquqiy bazada keltirilgan andozali uslub asosida iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitobini raqamlashtirish;
- turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq va sohalarining xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati iqtisodiy bo'limlarini raqamlashtirish;
- davlat va xo'jalik faoliyati subyektlari iqtisodiy faoliyatini raqamlashtirish;
- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda raqamli modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar hamda raqamli ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tahliliy, ilmiy tadqiqot faoliyati:

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda raqamli iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda raqamli iqtisodiyot yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;
- raqamli iqtisodiyotni ta'minlash yuzasidan aniq iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlarni izlash, to'plash va tahlil qilish;
- iqtisodiy ma'lumotlar to'plamini qo'yilgan topshiriqqa asosan qayta ishlash, tahlil qilish, baholash, olingan natijalarni qiyoslash va asoslangan xulosalarga kelish;
- zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida hisobotlar va axborotlar sharhini tayyorlash;
- statistik kuzatishlar, elektron so'rovlar, anketa so'rovlari va ularning birlamchi natijalarini qayta ishlash va xulosa berish;
- raqamli transformasiyaning ijobiy hamda salbiy oqibatlarini aniqlashda ishtirok etish, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotlarni xayotga tatbiq etish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- elektron biznes loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

- qabul qilinadigan qarorlarni raqamli iqtisodiyotga moslashtirish;
- Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;
- raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning xavfsizligini ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarda tashkiliy-boshqaruv qarorlarini asoslash;

- tashkiliy-boshqaruv jarayonida bajarilgan ishlarni raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- raqamli iqtisodiyotni ta'minlash uchun tashkil etilgan jamoa va guruhlarini tezkor ravishda boshqarish;
- turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq va sohalarning xo'jalik yurituvchi subyektlarida masofaviy xizmatlarni ko'rsatish bo'limlari faoliyati boshqaruvini tashkil etish va takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida faoliyat yuritish;
- raqamli iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan favqulotda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni prognozlash, ularni bartaraf etish yoki yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- zamonaviy raqamli texnologiyalar, platformalar va innovatsiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi;
- iqtisodiyotni raqamlashtirish uchun axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali yuksak maralarga olib chiqish yo'lida yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarini o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;
- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqarish;
- korxona va tashkilotlarning axborot tizimlari faoliyatini rejalashtirish va raqamlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- biznes tahlillari uchun axborotlarni qayta ishlashning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqarish;
- zamonaviy dasturlash tillarini o'zlashtirish va korxona/tashkilotlar faoliyatini elektron ko'rinishda tashkil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlarida va tashkilotlarning boshqaruv jarayonlarida raqamli iqtisodiyotning mavjud texnologiyalarini qo'llay olish;
- loyihalar, biznes-rejalar va sharnomalarni shakllantirish hamda elektron tijoratni yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- “Katta hajmdagi ma’lumotlar” (Big data) bazasini shakllantirish va tahlil qila olish;
- bulutli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar, buyumlar interneti, sun’iy intellekt, virtual voqe’lik va blokcheyn texnologiyalari asosida makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko’nikmalariga ega bo’lish;
- zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv qarorlarini to’g’ri qabul qilish va elektron hukumatni samarali yo’lga qo’yish bo’yicha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko’nikmalarni egallashi o’quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o’zlashtirish, amaliyotlarni o’tish hamda boshqa o’quv mashg’ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko’nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo’shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malakaviy amaliyot o’tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar:

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4320	144
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12

2.3.2. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama ning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4320	144	
1.01	MATH12	Amaliy matematika	360	12	1, 2
1.02	ECOTHE12	Iqtisodiyot nazariyasi	360	12	1, 2
1.03	ICTECO6	Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari	180	6	2
1.04	FORLAN10	Xorijiy til (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	300	10	1, 2

1.05	LANGUA4	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.06	HISSET2	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	120	4	2
1.07	PHILOS4	Falsafa	120	4	1
1.08	MRHUZ4	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.09	RELST4	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	STATIS6	Statistika	180	6	3
1.11	INTECON6	Ekonometrika	180	6	3
1.12	ARTINT12	Sun'iy intellekt	360	12	4, 5
1.13	FUNPRO6	Dasturlash asoslari	180	6	3
1.14	MACROE6	Makroiqtisodiyot	180	6	4
1.15	INTEP6	"Big data" tahlillash usullari	180	6	4
1.16	DIGECO6	Raqamli iqtisodiyot	180	6	3
1.17	GREECO6	"Yashil" iqtisodiyot	180	6	3
1.18	CLOCOM6	Bulutli hisoblash	180	6	6
1.19	DIGMAR6	Raqamli marketing	180	6	6
1.20	DIGBM6	Raqamli biznes modellar	180	6	6
1.21	ECOSEC6	Iqtisodiy xavfsizlik	180	6	5
1.22	ITPM6	IT loyiha boshqaruvi	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	
2.00		<i>Tanlov fanlar (10)</i>	1800	60	4,5,7
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	720	24	6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya: "Iqtisodchi/Raqamli tahlilchi"


Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, raqamli iqtisodiyot, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestasiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ekspertiza, zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturiy vositalar, texnologiyalar, axborotlarni qayta ishlash, axborot tizimlari, global axborot resurs bazalari, blokcheyn texnologiyalar, elektron tijorat, mobil tijorat, virtual olam, elektron biznes, fikrlash dizayni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  **K. Sharipov**

202_ yil « ____ » _____



**O'zbekiston Respublikasi Raqamli
texnologiyalar vazirligi**


Boshqarma boshlig'i  **J. Shukurov**

202_ yil « ____ » _____



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

202_ yil « ____ » _____

M.O.



**Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti**

Rektor  **I. Madjidov**

202_ yil « ____ » _____

M.O.



**"Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlar
markazi" DM**

Direktor  **V. Kravchenko**

202_ yil « ____ » _____

M.O.



**FDIU huzuridagi "O'zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot
markazi**

Direktor  **M. Kalonov**

202_ yil « ____ » _____

M.O.



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim
yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K. Sharipov, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Boshqarma boshlig'i J. Shukurov, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori I. Madjidov, "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlar markazi" DM direktori V. Kravchenko, TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi direktori M. Kalonov birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejaları mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

Yuqoridagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi" 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

K. Sharipov

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Boshqarma boshlig'i

J. Shukurov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori

I. Madjidov

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi direktori

M. Kalonov

"Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlar markazi" DM direktori

V. Kravchenko

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
ishlab chiqilgan 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar
bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar
tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TA Q R I Z

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi", 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanib hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij

tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan.

Malaka talablari va o'quv rejada fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, tarmoq va soha ob'ektlarida amaliyotlarga, amaliy mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai-nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejani ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60310500 – *Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv reja oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Toshkent moliya instituti

**“Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot”
kafedrasi mudiri, i.f.n., prof.**



Yo. Ilxamova



Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
ishlab chiqilgan 60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning
tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar
yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TA Q R I Z

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 60310500 – *Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi" to'g'risida PF-27-son Farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-200-son Qarori, 2023-yil 5-iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida" 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlari tamoyillariga amal qilingan.

60310500 – *Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan yangilangan malaka talablari va o'quv reja xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, tarmoq va soha obyektlarida amaliyotlar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi

bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai-nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejani ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan berilgan takliflar inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60310500 – *Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv reja oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**TDIU "Raqamli iqtisodiyot va
axborot texnologiyalari" kafedrası
professori, i.f.d.**

T.S. Kuchkarov

